

Ona yurting - oltin beshiging

TONG

YULDUZ

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KUTUB PALATASI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

2007-yil 1 - 7 -yanvar N:1 (66594)


Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi.



SAHIFALARDA

E'ZOZA



-BETDA

«KELAJAK OVOZI» - BIZNING OVOZ!



-BETDA

HAYOT LAZZATIDAN BAHRA OL, AMMO...

-BETDA

BOSHIDA OFTOB PORLAGAN QIZ

Sevinchning sevinchi behad: dunyoning narigi burchida uning she'ri olqish oldi. Erta tongdan ota-onasini maktabga chaqirishdi. Do'stu dugonalarining havas bilan boqib turishi, ustozlarining xursandchiligi boshida oftob balqigan qizni hayajonlantirib yubordi. Kattalar «Istiqlol sharofatidan bu, bizlar har qancha mo'jizalar yaratmaylik, mahallamizdan nariga o'tmagandik», deb turishsa, tengdoshlari «Internet xabarlariga befarq bo'lmay, gazeta va jurnallarni o'qib turish kerak ekan-da! Bilganimizda, bu tanlovdan biz ham qatnashar edik», deyishardi. Ha, Sevinch shunaqa ziyrak qiz. U katta shaharda yashasa-da, otasi sabab surxoncha osh damlashni biladi, onasi sabab Namanganning Olmos qishlog'i qizlari kabi go'zallikka intiladi: chevarlik qiladi, sochlarini chiroyli qilib turmaklaydi. Dala-hovlisida sigir soqqan ham, onasiga yordamlashib singlisi Samodilni boqqan ham, shirin kulchalar yopib akasiga yoqqan ham shu Sevinch!

Bizning mamlakatda odamlar mehnat bilan izlaganini topadi. Bunga Sevinchning bugungi g'alabasi ham misol.

YUNESKO tashkilotining «Barqaror taraqqiyot ta'limi» tanlovi g'olib Sevinch Norqobilova sabab ularning maktabiga YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi mas'ul kotibi Alisher Ikromov ham keldi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi (2005-2014) doirasida tashkil etilgan bu tanlovdan she'riyat, insho, san'at, musiqa yo'nalishlari bor edi. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo'yicha 46 davlatdan 150 dan ortiq ijodiy ishlar qabul qilindi. Ijodiy ishlar orasidan 6 nafar g'olib ishtirokevi tanlab olindi. G'oliblar orasida Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 17-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi Sevinch ham bor edi. U tanlovdan «Taraqqiyot» she'ri uchun g'olib deb topilib, YUNESKO Diplomi hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi. Shuningdek, Sevinch o'qiydigan 17-maktab direktori Aliyeva Liliya Rahimovna ham YUNESKO Diplomi bilan taqdirlandi. Sevinch Norqobilovaga maxsus sertifikat va qimmatbaho sovg'a ham berildi. Quyida Sevinchga olqish yo'g'dirgan she'rinin havola qilayapmiz.

YANGI YIL - YAXSHI YIL!

Yangi yil!

Yaxshi-da juda.

Yaxshilik

Kuyi avjida.

Endi tilim ham

Burrolashadi,

Bo'yim ham o'sib,

Aqlim oshadi.

Naqarat:

Yangi yil!

Yoshimga yosh qo'shar

Bayram ko'p bo'lsin!

Yaxshi yil!

Sovg'alar ularshar

Ayyom ko'p bo'lsin.

Katta bo'laman,

Niyatlar katta.

Yoshimga loyiq

Bo'lgum albatta!

Keling do'starim

Quvnab o'ynaylik.

Yaxshilik kuyin

Birga kuylaylik.

(lyrics) Jumadulla NAZAROV mus. Umida ABDUAZIMOVA she'ri.

The musical score consists of two staves of music. The first staff starts with 'Allegretto' tempo, G major, and includes lyrics like 'Yan-gi yil! Yax-shi-da ju-da!' and 'Yax-shi lik ku-yi av-ji-da!'. The second staff continues with lyrics like 'En-di ti-lim ham bur-ro-la-sha-di. Bo'-yim ham o'-sib, aq-lim o-sha-di.', 'Yan-gi yil! Yo-shing-ga yosh qo'-shar bayram ko'p bo'l-sin.', 'Yax-shi yil! Sov-g'a-lar u-la-shar ay-yom ko'p bo'l-sin!', and 'Yax-shi yil! Yo-shing-ga yosh qo'-shar bayram ko'p bo'l-sin!'. The score concludes with a 'Coda' section and a 'Fine' at the end.



TARAQQIYOT

Taraqqiyot nima? Har kun, har soat,
Jahon ayvonida turmoq munosib.
Ming chaqirim yo'lni balki lahzada,
Havo kemasida o'tmoqlik bosib.

Taraqqiyot nima? Hissiyotlarni,
Balki yemiradi fan to'fonlari.
Har qaysi millatda bo'lishi mumkin,
Avtomashinalar, qo'l telefonlari.

Taraqqiyot nima? Balki har uyda,
Quyosh likopchalar turar nur sochib.
Balki oislardan sahrolaringa,
Shimol daryolari kelar yo'l ochib.


Robot choy damlaydi. Kompyuter ishlar,
Taraqqiyot shudir! Sanay qay birin?
Dunyoda shahar yo'q, uchmay qolmaydi,
O'zbeklar yurtidan havo layneri.

Tarixi dunyoni titratgan o'zbek,
Ne ulug' zotlarga beshik bu o'lka.
Qaysi bir asrda yashasa hamki,
Senga ta'zim qilib turar YUNESKO.

Taraqqiyot shudir – olam yagona,
Dunyo tan olmagay sim sarhadlarni.
Yer shari qaytadan qurolmas lekin,
Xiva, Buxoro-yu Samarqandlarni.

Taraqqiyot balki global san'at,
Global kuy-qo'shiq, roklar, xitoblar.
Menimcha, dunyoni taraqqiyot emas,
Qutqarib qoladi faqat kitoblar!

Sevinch NORQOBILOVA,
Toshkent shahridagi 17-maktabning
7-sinf o'quvchisi.



Anvar aka juda ko'p chekardi. Ishxonada ham tamakisini tutatib, hammaning asabiga tegardi. Kasbdoshlari: «Xonada chekmang, bizning ham sog'ligimizga ta'sir qiladi-ku», deyishsa ham, o'z bilganidan qolmasdi. Uyida ham tinimsiz yana sigaret tutatardi. O'g'li Sobirjon:

QUSH UYASIDA KO'RGANINI QILADI


«Dada, men dars qilayapman, sigaret inson salomatligiga yomon ta'sir qilarkan» desa: «O'g'lim, sigaret chekmasam, boshim og'rib qoladi, do'konga borib, menga sigaret olib kelib ber», derdi. Sobir ham dadasining aytganini qilishga majbur bo'lardi.

Bir kuni Sobirning boshi og'rib qoldi. Shunda u: «Dadam sigaret cheksam, boshimning og'rig'i qoladi», derdilar, men ham chekib ko'raychi, zora boshimning og'rig'i qolsa, deya o'ylab dadasining xonasidan sigaret olib chekdi... Keyinchalik u sigaret tutunini uzoqdan sezsa ham, chekkisi keladigan bo'lib qoldi... Essizgina umr! Hozir Sobirjon yoqilg'isiz qolgan mashinaga o'xshab qolgan. Sigaret chekmasa hech ishga qo'li bormaydi.

Qush uyasida ko'riganini qiladi, deb shunga aytishsa kerak-da. Mana ko'rdingizmi bolalar, arzimagan narsa bilan odam o'z umrini zaharlashi hech gapmas ekan. Shuning uchun bunday illatlardan uzoqroq yuring.

*Yodgora SODIQOVA,
Yunusobod tumanidagi 98-maktabning
8-«G» sinf o'quvchisi.*

DO'STLIK YANA G'OLIB



Maktabimizdagagi kitobsevar o'quvchilar buni juda yaxshi bilishadi. «Kitobxonlar» tanlovini o'tkazib, o'qigan badiiy adabiyotlari xususida munozaralar o'tkazib turishadi. Bunday bellashuvlar ning maktablararo o'tkazilishi yana-da qiziqarli kechadi.

Yaqinda bizning mabta-bo'lib o'tdi. «Tafakkur» «Bilimdon» guruhi kitob-kuch sinashdilar. Yilashish, «Kitoblar» «Kim ko'p maqol qiziqish bilan tomosha lashtirish va juda maktabimiz direktori tarbiya ishlari bo'yish R.M. Mahkamova, o'qituvchisi H.M. Mirzajonova hamda kutubxonachimiz L.S. Seytveliyevarning hissalari katta bo'ldi.

Bahs va munozaralarga boy bo'lgan tanlovda do'stlik g'alaba qozondi.

— Gap g'alabada emas, — deyishdi ishtirokchilar mammuniyat bilan. — Bilganlarimizni o'rgatdik, bilimganlarimizni o'rgandik. Muhammed, ko'plab hamfikr do'star orttirdik...

Menimcha ham shunday. Bunday bellashuvlar tez-tez o'tkazilib tursa, bilimimiz boyigandan boyib boraveradi.

*Alisher ABDULLAJONOV,
poytaxtdagi 231-maktabning 9-sinf o'quvchisi.*


DEVORIY GAZETAMIZ — AYTAR SO'ZIMIZ

— Sinfimiz devoriy chiqishi uchun tinmay uning har bir sonida hayotiga oid yangilik-miz. Bezakchilar, ijod-chasi o'zimizning orabir sonini oldindan mu-Shu bois ham maktabo'lib o'tgan devoriy bizning gazetamiz I o'rинг 'ururga to'lib 8-«D» sinf

Birgina bu emas, Sobir Rahimov tumanida maktabda turli tadbirlar, ravishda o'tkazilib turilar ekan. 9-11- sinflar o'ttasida bo'lib o'tgan «Qonun ustuvorligi jamiyat tayanchidir» mavzusida insholar tanlovida Ra'no Abdurashidova, Kamola Mirzayevalarning yozgan insholari eng yaxshi deb topilgan bo'lsa, 8-«V» sinf o'quvchisi Shahzoda Zokirova ilm maskanida o'tkazilgan qo'shiq bayramida «Vatan» nomli qo'shig'i uchun I o'rinni qo'lga kiritdi. G'oyat qizg'in bahs-munozaralarga sababchi bo'lgan «Sen qonunni bilasanmi?» mavzusidagi ko'rik-tanlovda 9-«V» sinfining «Adolat», 9-«G» sinfining «Huquqshunos» guruhlari o'zaro bellashdilar. Barcha shartlarni a'lo darajada bajargan «Adolat» guruhi o'quvchilari g'oliblikni egalladilar.

Maktabda o'tkazilayotgan turli mavzulardagi ana shunday tanlovlardan, qiziqarli kechalar o'quvchilar bilimini yana-da mustahkamlamoqda. Ha, aytgancha, 8-«D» sinf devoriy gazetasi uchun esa ilm maskani hayotidan mavzular behisob ekan.

gazetasining qiziqarli izlanamiz. Negaki, ta'lim maskanimiz larni yoritib bora-kor o'quvchilar bar-mizda. Uning har hokama qilamiz. bimiz bo'yicha gazetalar tanlovida ni egalladi, -deydi o'quvchilari.



poytaxtimizning joylashgan 165-

ko'rik-tanlovlardan, kechalar muntazam jamiat tayanchidir» mavzusida insholar tanlovida Ra'no Abdurashidova, Kamola Mirzayevalarning yozgan insholari eng yaxshi deb topilgan bo'lsa, 8-«V» sinf o'quvchisi Shahzoda Zokirova ilm maskanida o'tkazilgan qo'shiq bayramida «Vatan» nomli qo'shig'i uchun I o'rinni qo'lga kiritdi. G'oyat qizg'in bahs-munozaralarga sababchi bo'lgan «Sen qonunni bilasanmi?» mavzusidagi ko'rik-tanlovda 9-«V» sinfining «Adolat», 9-«G» sinfining «Huquqshunos» guruhlari o'zaro bellashdilar. Barcha shartlarni a'lo darajada bajargan «Adolat» guruhi o'quvchilari g'oliblikni egalladilar.

Maktabda o'tkazilayotgan turli mavzulardagi ana shunday tanlovlardan, qiziqarli kechalar o'quvchilar bilimini yana-da mustahkamlamoqda. Ha, aytgancha, 8-«D» sinf devoriy gazetasi uchun esa ilm maskani hayotidan mavzular behisob ekan.

*Nigora NODIROVA,
TMI qoshidagi II akademik litsey talabasi.*

DADAJON

*Dadajon! Men sizni sog'inib qoldim,
Opichlab ko'targan yelkalaringiz.
Dadajon, ulg'aydim, ulg'ayib qoldim,
Necha yil ardoqlab erkaladingiz.*

*Qarang-a, kiribman o'n olti yoshga,
Siz meni «Barchinoy qizim» derdingiz.
Qalbimda mehringiz sururi boshqa,
Almashtira olmas hech kim o'rningiz.*

*Dadajon, men endi «boshqaman» bugun,
Dastlabki toshga ham urildi boshim.
Oq tushgan sochingiz tiklamoq uchun,
Yetarmikin mening sabr-bardoshim.*

*Dadajon, dadajon, kechiring meni,
Kechiring ranjitan bo'lsam dilingiz.
Dadajon! Aytaymi yashirin sirni:
Sizni hammadan ham sevar qizingiz.*

*Bilaman, oldinda hayotim yo'li,
Ollohning kalomi dilimda har dam.
Do'stlarim, men shunday qiz bo'lay hali,
Shod bo'lsin hammadan dadajonginam.*

*Ma'rifat TEMIROVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumani.*



bimizda ham ana shunday ko'rik-tanlov nomli guruhimiz 145-o'rta maktabning xonlari bilan yettita shart bo'yicha g'ilganlar, ayniqsa, «Salom-sharhi», «Sardorlar bahsi», aytadi?» kabi shartlarni katta qilishdi. Tanlovnini tashkil-qiziqarli tarzda o'tishida A.S. Izmaylova, o'quvcha direktor o'rinosbosarlari N.A. Inomova, ona tili fani

Tim qorong'u kechani, Yoritib turardi Oy. Nuriga monanddir deb, Boqdirm undagi chiroy. Oyga termulib deyman, Nega yuzing to'la dog? Go'zal deyishar seni, Buyog'i bo'ldi qandoq? Oy xijolat bo'lgan day, Menga qarab jilmaydi. Yuzga tortib bulutni, Gapirgani iymandi. Shunda oydin, oq kecha, Zulmat to'n kiyib oldi. Oymomoning bir zumda, Qadri bilinib qoldi.

O'zim bergan savolga, Topgandek bo'ldim javob. Oy shunchalar dilbarki, Unga nur berar oftob.



*Shohida
TOSHPULATOVA,
Toshkent Davlat Agrar
universiteti qoshidagi
Akademik litsey o'quvchisi.*

OYNING CHIROYI

Tim qorong'u kechani, Yoritib turardi Oy. Nuriga monanddir deb, Boqdirm undagi chiroy. Oyga termulib deyman, Nega yuzing to'la dog? Go'zal deyishar seni, Buyog'i bo'ldi qandoq? Oy xijolat bo'lgan day, Menga qarab jilmaydi. Yuzga tortib bulutni, Gapirgani iymandi. Shunda oydin, oq kecha, Zulmat to'n kiyib oldi. Oymomoning bir zumda, Qadri bilinib qoldi.

O'zim bergan savolga, Topgandek bo'ldim javob. Oy shunchalar dilbarki, Unga nur berar oftob.

Mana, xayrli yangi yilimizni ham dillarimizda bir olam ezgu niyatlar bilan boshlab yubordik. Yangi yildan, uning har bir yangi kundan yaxshilik kutib yashash insonlarga xos fazilatdir. Ayniqsa, siz o'g'il-qizlarning qalblaringiz orzularga limmo-lim.

Bugun sizlarga faqat orzulabgina qolmay, ularga yetishish yo'lida astoydil harakat qilayotgan tengdoshlaringiz haqida hikoya qilmoqchiman. «Olma pish, og'zimga tush» deb o'tirgan bilan ish bitmaydi-ku axir,

E'zoza Sobirova Xorazm viloyati, Gurlan tumani, 5-maktabning 7-sinfidagi a'lochi o'quvchilardan biri. Ayniqsa, matematika va ingliz tiliga ishtiyoiq baland. Maktab rahbari – O'zbekiston Qahramoni Anora opa Mahmudova shogirdlarining matematika sirlarini yana-da chuqurroq egallashlari uchun «Kichik akademiya» tashkil qilganlar. E'zoza ana shu akademiyaning eng faol a'zolaridan. Ingliz tili o'qituvchisi Yodgora Tangriberanova tashkil qilgan «Happu English» klubida o'tadigan qiziqarli mashg'ulotlarning ham eng bilimdon va zukko ishtirotkilaridan bo'ladi. Shuningdek, maktab «Kamalak» Bolalar tashkilotining «Umid» yo'naliishi sardori hamdir.

U aniq fanlarga qanchalar qiziqsas, gumanitar fanlarni ham shunchalar ishtiyoy bilan o'rganib kelyapti. Maktabdagagi «Yosh qalamkashlar» to'garagida ustoz Gulbahor opa Abdullayevadan she'r, qatra, maqlolalar yozish borasida olgan saboqlari tumanda o'tkazilgan «Nafosat» hamda «Yosh qalamkashlar» tanlovlarda g'olib bo'lib, viloyat bosqichida ham muvaffaqiyatlari qatnashishida juda qo'l keldi. Yaqinda bo'lib o'tgan «Biz Prezident farzandlarimiz» mavzusidagi insholar tanlovida uning yozgan inshosi birinchi o'ringa munosib deb topildi.

Ma'mun Akademiyasining 1000 yillik to'yiga tuhfa sifatida akademiya haqida ilmiy ish ham yoqladi.

O'zingizdan qolar gap yo'q, xorazmliklar iuda san'atsevar bo'lishadi. Shu

ko'hna zamin farzandi bo'lmish E'zozaning ham san'atga mehri bo'lakcha. «O'zbekiston

– Vatanim manim» qo'shiqlar tanlovida laparlар kuylab, maktabi jamoasining viloyatda oliy o'rinni egallashiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Barcha bugunning bolalari kabi u ham kompyuter bilag'oni. Yozgan maqlolari, ilmiy ishlarini kompyuterga vaqtida kiritib boradi.

Bu zukko tengdoshingiz shuncha mashg'ulotlaridan ortib, sport bilan shug'ullanishga ham fursat topadi. Tumandagi mashhur sport ustasi 4-Dan qora belbog' sohibi Hakim aka Fatxuddinovdan karate sirlarini o'rganyapti.

– Men 3-sinfdan buyon karate bilan shug'ulamanan,-deydi E'zoza hayratlanayotganimizni ko'rib. –Qizil belbog' sohibasiman. Shu kunlarda Samarqandda o'tadigan «Santa Klaus» musobaqa-sida qatnashish uchun, qizg'in tayyorgarlik ko'r-yapmiz.

Axir yurtboshimiz «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono ya albatta baxtli bo'lishlari shart» deganlar-ku. Men ham ular orzulagandek komil inson bo'lishga harakat qilyapman-da...


Ham ijodkor, ham san'atkor, ham sportchi, ham bilimdon, yana sardor qiz E'zozaning «O'zbekiston!» deb nomlangan she'riniz sizning e'tiboringizga ham havola qilgimiz keldi:

O'ZBEKISTON!

Ta'rif yetmas makonimsan,
Jannatmakon O'zbekiston.
Jondan aziz sen jonimsan,
Hur guliston, O'zbekiston!
Senda bordir bari imkon,
Issiq go'sha,bog'-u bo'ston.
Tog'-u daryo, bahoriston,
Oltin makon O'zbekiston!

Yashar bunda ko'p fuzalo,
Ham pahlavon, ham ulamo.
Millatparvar, ham jonfido,
Bari senda, O'zbekiston!
Qizlaring xo'p chevar seni,
Farzandlaring asl o'g'lon.
E'zoz qizing sevar seni,
Tilda doston O'zbekiston!

E'zoza SOBIROVA.



O'qing, havas qiling!

«RASMLARIM - MENING TILMOCHIM»



Yana bir iqtidorli qizimiz Dilrabo Kuliboyeva bilan respublika Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan o'tkazilgan «Huquqiy savodxonlik oyligi» bayramida tanishib qoldik. Bolaligidanoq mitti qalbida uyg'ongan rassomlikka bo'lgan ishtiyoyq hozirda Toshkent viloyati Pedagogika kollejining III bosqichida a'lo baholarga o'qiyotgan damlarida ham so'nmabdi.

– Chizgan rasmlarim orqali insonlarga aytmoqchi bo'lgan dilimdagagi so'zlarim, samimiyl tilaklarim, muhabbatimni ifodalayman,-deydi Dilrabo kattalardek mushohada yuritib.– Bir so'z bilan aytganda, rasmlarim – mening tilmochim...

Darhaqiqat, chizgan rasmlari qahramonlarining chehrasida qandaydir nur, iliqlik va mehr bordek, ular bizga moziydan hikoyat so'zlayotgandek edilar.

Nozikkina qalbiga shunchalar mehrni sig'dira olgan bu qiz bilan yaqinroq tanishgimiz, uning yana nimalarga qiziqishi, sevimli mashg'uloti haqida bilgimiz keldi.

U ko'plab ko'rik-tanlovlarda qatnashib, talaygina yutuqlarini qo'lga kiritishga ham ulguribdi.




«Ma'rifatli yurt farzandlarimiz» respublika tanlovida II o'rinn bilan kifoyalangan bo'lsa, informatika fani bo'yicha o'tkazilgan olimpiadada hamda Qibray tumani miqqosida o'tkazilgan «Zulfiya qizlari izdoshlari» ko'rik-tanlovida unga I o'rinnasib etdi.

«Kompyuter savodxonligi» kursini Qizil diplom bilan tamomlab, hozirda bilganlarini I bosqich

talabalariga ham o'rgatib kelayotgan Dilrabo har bir o'g'il-qizning kompyuter bilimdoni bo'lishini juda-juda istaydi. Uyida tikish-bichish to'garagi ochib, chevar onasidan o'rganganlarini 24 nafar qizga o'rgatib kelyapti. Hozirda qizlarning qo'llari tikish-bichishga, biser tikishga hamda yumshoq o'yinchoqlar yasashga ancha kelishib qolgan. Dilrabodagi ishtiyoyq, faollik, qiziquvchanlikdan mammun bo'lgan mahalla oqsoqoli 3 ta tikuv mashinasini unga ishonib topshirib qo'ydi.

Biz nima ham derdik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lib, yosh avlodni bilimdon, zukko, zamon talabalariga javob bera oladigan qilib tarbiyalash ishtiyobi bilan yashayotgan Dilraboga omad tilaymiz.



Feruza JALILOVA suhbatlashdi.

"KELAJAK OVOZI" - BIZNING OVOZI!

Xayolimda yurib-yurib, ayro yo'l boshida turib qolgandyman. Bu yo'llarning biridan qynalmay, tashvishsiz yurib o'tsang, ikkinchisi mashaqqatli, mehnatlari bo'lib ko'rindi.

Men-chi, men qaysi yo'ldan yurayin, qaysi yo'lga qo'rqlay kirayin?

Yurakkinam, sendan javob izlayman. Bilasan, shu choqqa sen buyurgan ishlarni qilib keldim. Ammo sen nega birdan bezotvalanding? O'zingni qynamay oson yo'lni tanla, demoqchimisan? Unda sen bilan boshlab qo'yanishimiz nima bo'ladi? Samolarga bo'yashgan orzularga mehnatsiz erishib bo'larkanmi?

Mening mittigina yurakkinam, orqaga

MENING MITTIGINA YURAGIM

chechinishimga yo'l qo'yma, qiyinchiliklarga, sinovlarga chidashimda dalda bo'l. Aslida mittigina bo'lsang ham, mening bor-butun zahmat-u mehnatlarim, harakat-u hasratlarimni boshqarib kelayapsan. Dosh berolmaymiz dema! Nohaqliklarni ko'rganda qynalganim, ixtirob chekkanimda dalda bo'lib, balli degin!

Oybekdek qalbi quyosh bir inson, buyuk bir yozuvchi hayot zorbalariga dosh beraman deb tildan qolgan, qo'li qalam tutolmay doira chertgandagi holatini o'qib, qancha bag'rimni tilganing, yashirib yig'laganlarim yodimda. Mana, Mirtemirning bitta oddiy unvonsiz bu dunyoni tark etgani qalbimga naqadar og'ir botganini eslayapsan. Maqsud Shayhzoda-chi? Umr bo'yijod qildi, oq qog'ozda qalam yugurtirdi. Nima, uning:

«Mehnatni o'ng qo'l qiladi,

Tilla soatni chap qo'l taqadi», degan so'zlarini yana yodimga solayapsanmi?

Axir biz endi Istiqlol nashidasini surib yashayapmiz-ku!

Qolaversa, bizga panoh bo'lgan, bekam-u ko'st o'stirayotgan Vatanim bor. So'zlar shirin, jonkuyar ustozlarim, tanamga bir tikan kirsasi kiprikllari bilan oluvchi ottonam, ishonchli, yelkadosh do'starim bor.

Shunday ekan, hech qachon ikki yo'l orasida qolmaymiz. Men senga suyanaman, sen mena, mittigina yuragim!

Dilafro'z BAHRIDDINOVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi
II-maktabning II-sinf o'quvchisi.

BIZ KURASHCHAN YOSHLARMIZ

Biz go'zal deb ataydigan hayotda nohaqliklar, ko'zbo'yamachiliklar ham uchrab turar ekan. Buni men o'n besh yoshimda anglab yetdim. Hozirgi paytda yoshlari qatnashishi mumkin bo'lgan tanlovlari ko'p. Lekin ota-onam ularga qatnashishga ko'p ham ruxsat berishmaydi. Aytishlaricha, puli borlar g'olib bo'larmish! Mening esa xafa bo'lganim qolarmish!

Kechki taomidan so'ng biz namanganliklar bo'lib o'tgan bu tanlov haqida uzoq suhablashdik, dilda qoniqish bilan halollik va vijdon hakam bo'lganidan quvondik. Ammo kimdir ratsionalizatorlik taklifleri yo'nalishi bo'yicha nohaqlik bo'ldi, deb qoldi. Hech qaysi viloyatdan so'rallagan patient aynan o'sha yo'nalishda qatnashayotgan bizning bolalardan so'rallidi. Yana ularga hayat a'zolari qo'pol munosabatda bo'lishibdi. Bolalar bu haqda ariza ham yozishibdi...

Bu tanlov nominining o'zida katta va yuksak ma'no yotgani barchamizga ma'lum.

Shu sababdanmi, hamma yo'nalishlarga barcha qatnashuvchilar sinchkovlik bilan e'tibor berib turdi. Qalami, iqtidori borlar darrov tanildi.

Namanganlik MASHHURA.

DAVRANI KENGROQ OLING!

2006-yil, 18-21-dekabrda «Xalqlar do'stligi» saroyida «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jang'armasi hamda «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati tashabbusi bilan tashkil etilgan «Kelajak ovozi - 2006» Respublika iqtidorli yoshlari tanlovi g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur tanlov ilk bor 2005-yilda o'tkazilgan bo'lib, unda respublika miqyosida uch mingdan ziyod 15 yoshdan 25 gacha bo'lgan yoshlari ishtirok etgan, 6 yo'nalish bo'yicha 40 nafari mutlaq g'olib bo'lgan. 2006-yilda esa ushu mega-tanlova o'n ming nafar yoshlari O'zbekiston Respublikasining viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida ishtirok etib, ulardan 280 nafari tanloving birinchi — yiloq bosqichidan o'tib, Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lg'a kiritdi. Respublika final bosqichida ko'rik-tanloving 40 nafar g'olibni aniqlandi. Tanloving ahamiyatlari jihat shundaki, uning yo'nalishlari ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalarini qamrab olgan. Bular tasviriy va amaliy san'at, ratsionalizatorlik borasidagi



takliflar, texnik loyihibarlar va ishlannalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalarga oid va ijtimoiy loyihibarlar, biznes rejalar, me'morchilik va dizayn, badiy ijod hamda publisistika yo'nalishlaridir. Tanlov ishtirokchilari orasida badiy ijodi bilan qatnashgan buxorolik Vohid Niyozov «Ratsionalizatorlik takliflar, texnik loyihibarlar va ishlannalar» nominatsiyasida «Baxyali tikuv mashinalarida elastik materiallarni surish mexanizmini takomillashtirish» loyihi bilan qatnashdi. Bu tikuv jarayonida yuzaga keladigan shovqinni yo'qotishga mo'ljallanganligi bois sanoat tizimida yangilik hisoblanadi...

40 NAFAR G'OLIBDAN 40 TURLI YANGILIK

Qanday ajoyib! Ana shunday iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlayotgan «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jang'armasi va «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati tomonidan o'tkazilgan respublika tanlovi jamoatchilik va yoshlari o'ttasida katta qiziqish uyg'otdi.

Istiqlolning dastlabki yillardanoq davlatimiz rahbari Islam Karimov tashabbusi bilan yosh avlod ta'lif-tarbiyasi borasida qabul qilingan Farmon va Qarorlar, davlat



dasturlari o'g'il-qizlari izni milliy va umumbashariy qadriddiyatlar ruhiha tarbiyatash, ularning jismoniy, ruhiy va man'naviy rivoji uchun shart-sharoit yaratishga yo'naltirilgan.

«O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasining milliy madaniyatlarni va san'atimiz yutuqlarini yoshlari o'ttasida keng targ'ib etish, qobiliyatli yigit-qizlarni haqmonlamada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning jamiyat hayotida o'z o'rmini topishiga ko'maklashishga olib loyihibar, ko'rgazma, konsert, ko'rik-tanlov va festivallari tobara omimalashib bormoqda.

MARDLAR BELLISHADI

«Kelajak ovozi», «Yangi avlod», «Navqiron O'zbekiston» kabi ijodiy bellashuvlarda g'olib chiqqan yigit-qizlar bugungi kunda o'zlarini tanlagan sohalari bo'yicha

faol izlanishlar olib borayotgani nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlov va festivallarda Vatanimiz sharafini yopishimiz himoya qilayotgani quvanlidir.

2006-yilning may oyida faol yigit-qizlar ishtirokida «Kelajak ovozi» yoshlari tashabbuslari markazining tashkil etilgani esa bellashuvdan ko'zlangan egzu maqsadlar o'zining amaliy ifodasini topishi, sovrindor yigit-qizlarning g'oyalari haqotga keng tabbiq etish, bilim va malakasini oshirish, o'z iste'doddorlari yana da rivojlanish imkonini beryapti. Ayni paytda ushu tanlov yoshlarning tasviriy va amaliy san'at, axborot-



Qo'shahfani Umida ABDUAZIMOVA va Muhammara PIRMATOVA tayyorladi.

«Kelajak ovozi» tanloving Respublika bosqichi qachon bo'darkin, deb bitta men emas, ko'p tengdoshlarim kutayotgan edilar. Niyatot, o'sha kun yetib keldi-yu, yo'lga chiqdik. Biz o'n yetti andijonlik yoshlarni Farg'onha aeroporti erta tongda bor chiroqlarini yoqib kuzatib goldi.

Shu kuni nafaqat jismimiz, balki ruhimiz ham yuksaldi. Shu baxtlilar ichida mening



KO'NGILNI KASHF ETGAN LAHZALAR BU

ham borligim quvchli edi.

Avval Abdulla Avloniy nomli Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti yotqxonasiga joylashtirishdi. Keyin o'z yo'nalishim bo'yicha «Jahon tillari» universitetiga yo'l oldim. Bu yerda Jumaniyoz Jabborov, Minhojiddin Mirzo, Umida Abduazimova, Sobir O'nar, Rustam Musurmon kabi ustoz ijodkorlar bilan yaqindan muloqotlar bilmaganimpi o'rganishga, nuqsolarimni takrorlamaslikka da'vat etdi.

Mana shu tanlov asosida respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan yana ko'plab o'zim kabi she'r-u shuur oshuhalari — tengdoshlarim, singillarim bilan tanishdim, do'star orttirdim. Kelgsuda bu do'stlik uzyvi davom etadi deb o'layman.

«Kelajak ovozi» iqtidor u qobiliyat sohiblarini kashf etish, ularga qanot berish yo'ldagi olg'a qadamdir. Eng asosiysi, yoshlarniziga bo'lgan davlatimizning yana bir e'tibori demakdir.

Badiy ijod va publisistika yo'nalishida qatnashayotgan har bir tengdoshimning o'ziga xos yo'ldan borishga intilayotganligini his qildim. Farg'onaliq Nazira Maqsud, namanganlik Mashhura Usmonova, navoiylik Yulduz Jumayevalarning ijod namunalarini o'qib, eshitib, qoyil goldim.

Ko'rik-tanlovingizning men ishtirok etayotgan bu yo'nalishi so'zga oshufta ko'ngillarning kashf etish kunlaridir, desam xato bo'lmaydi. O'laymanki, bu kunlar, bu ko'rik-tanlovlarning hayotimizning unutilmas yorqin sahifasi bo'lib qolajak.

*Yurakka hayajon sig'maydi aslo,
Qaroqlarda porlar bezavol yog'du.
Ruhiyatga sinmas qanot bag'ishlab,
Ko'ngil kashf etilar lahzalardir bu.*

*Ikromjon ASLIY,
Andijon viloyati,
ko'rik-tanloving Badiy ijod va
publisistika yo'nalishi ishtirokechisi.*

SHOIR BO'LAMAN DESANG...
Besh yildan buyon qalbimning nidolarni o'zga insonlarga ham yetkazish ilinjida nelamidir qoralayman, cho'itoq qalamimni qimirlatib xayolim shamollaridan olib qolgan hislarimi oshkor etmoqqa oshiqaman. Almoyi-aljoyi satrлari yozib SHE'R deb atayman va yozganlarimni gazetada ko'rish-u she'rлarini boshqalar ham o'qishini sezish hammasidan-da maroqli! Shunday qilib, yozish kasaliga mubtalo bo'ldim-qo'ydim. Kechalar kallamni qashib, ruchkani tishlab so'z izlayman, xayolan butun olamni kezaman...

Har yili dalada ishlaymiz. Quyosh butun zamin uzra olov qo'shunlarini olib o'tayotgan lahzalar salqin tut daraxti ostida o'tiramiz. Dalada dehqon qo'shunlarim ko'p. She'r yozishimdan xabar topishgan ekan, bir meni shunday «do'pposlab»di:

«Uka, she'r yozarkansanda, a? Bu she'r dan foyda bormi senga? Rostini aysam, shoirlar baliqlar ikrasidan ham ko'p ekan, achib-bichib yotibdi. She'rлarini tushunolmayman...», dedi. Uning so'zlarini eshitib, yuragi ma chumolik kirib ketganday bo'ldi. Kirdiyamki, chayon bo'lib o'rmaladi. Bor zahrini yig'ib, chaqib-chaqib oldi...

Kitobni sevaman. Kutubxonaga qatnayman. Bir kutubxonaching She'r yozish bekorchilarining ermagi», degan gapidan so'ng ingrab yubormaslik uchun tishladim.

Atrofinda aytilyotgan shu kabi so'zlar dilimda, hatto «She'r yozmay qo'yaqolsamchi», degan o'ylarni uyg'otdi. Yo'q! She'r yozmaslik qo'limdan kelmaydi. Yuragi ma toshayotgan tuyg'ularni she'r qilib aytmaslikning iloji yo'q. She'r men uchun JALLODDir — eng beraham, diydasi po'latdan ham qattiq, adashsang jazoladanig, tavsiga sig'maydigan. Shuning uchun ham NOZIK ta'bli shoirlar MO'RT bo'ladi.

Qu'onda Shoirlar (Shuora) degan sura bo'lib, unda «Shoirlarga aqdan ozganlar ergashsur», degan oyat ham bor ekan.

Demak, Ollo sh'e'r yozmaslikka buyurgan ekan-da! She'r yozganlar SHAYTONga ergashgan bo'lar ekana, deb tursam, oyatning davomi bor ekan, «IYMONLILAR BUNDUN MUSTASNO!»

Ha, SHOIRLAR iymoni bo'imoqlari shart! Ollo shoirlar bo'yiniga juda ulkan yuk tashlagan ekan, ijod qilaman degan zot bu yukni vijdoran ko'tarmog'i shart.

Akrom MALIKOV, Toshkent viloyati, Piskent tumani.




ЖАНА ЖЫЛ

Жаңа жылды қарсы алу — барша халықтың дәстүрлі мерекесі. Желтоксан айының ең соңғы күні тұнгі он екіде жаңа жыл басталады. Сондыктан Жаңа жылдың құрметіне әрбір үйде, мектептер мен мекемелерде сәнді шырша орнатылған мереке кеші өткізіледі. Бұл мереке кешін балалар қуанышпен қарсы алады. Жаңа жылда Аяз ата бабаларға сыйлық таратады.

Жаңа жыл

Жаңа жыл,
Жаңа жыл!
Жаңа жылда — жаңа жыр.
Жасыл шырша жаңында
Жадырап бар бала жүр.

Ә. АСЫЛБЕКОВ.



Соли нав

Соли навро дар чахон,
Пешвозд гиранд ҳамагон.
Дар Амрикою Ирон,
Дар Африқою Юон.

Дүстони ҳаммарзамон,
Қазок, қыргизу ўзбек,
Гүйнд: «Яңги йил билан,
Азизлар табриклаймыз!»

Бачаҳо аз ·Вашингтон,
Гирди арча даврзанон,
Ба яқдигар бигүйнд:
«Хаппи ню еа» дүстон!

Даст гирифта тифлакон,
Ахли форсизабонон,
Шуморо дар Соли нав,
Бихоҳанд иқболи нав.

Бигзор дар рүи чахон,
Соли нав бод човидон,
То бо суур ин чаширо
Пешвозд гиранд күдакон.

З. ТОХИРИЁН.

Наристеге

Таза суудай калыс бол,
Арамдықтан алыс бол.
Жапыз болбой, бийик бол,
Эл-журтуна ийик бол.

Көрө-көрө кесем бол,
Сүйлөй-сүйлөй чечен бол.
Ағып-ағып өзөн бол,
Айланайын, эсен бол.

С. ЭРАЛИЕВ.

Жаңы жыл

Күндөй жылуу үй ичи,
Сыртта бороон, сыртта кар.
Саймалаган, түрлөгөн
Аяз деген уста бар.

Үрдап жана бийлесек
Балатыны айланып,
Оюнчуктар асылған
Бизди карайт таңданып.

Кары дебей, жаш дебей
Күттүктаган бир-бирин
Жымың этип
Жыл жаңырткан күн
бүгүн.

Т. САМУДИНОВ.

Hormatly қағалар!

«O'zbekiston» neşirýatynyň türkmen redaksiýasyndan Sizi ýetip gelýän Täze 2007-nji ýyl bilen tüýs ýürekden gutlayárys. Size berk jan-saglyk, okuwalarynyzda uly üstünlikler gazanmagyňzy arzuw edýärис.

Goý, täze ýyl size amatlylyk we bagt getirsin.

**TÄZE ÝLYNYZ
BILEN!**



СОЛИ НАВ МУБОРАК БОД!

Ба ифтихори фарорасии Соли Нав ҳамаи ҳамкорон, муштариён ва ахли қалами «Тонг ўлдузи»-ро самимона табрик мегүем. Насли ҹавон — ситорагони бомдоди ҳаёт, ки рўзнома барояшон таъин шудааст имрўз воқеан ҳам аз саҳифаҳои он олам-олам маъниҳои нав ёфта, ҳамвора калиди қуфли дари хазинаи маънавияту фарҳангро барои худ боз мекунанд. Бигузор эҳтиёчи тарафайни рўзномаву муштариёнаш ҳамеша рўзафзун бошад. Ана, бо чунин як дархости дўстона, дар чунин як айёми фарҳунда барои ҳамаи онон баҳту саодати нав, сиҳати бардавом ва умри дароз орзумандем.

Aхли қалами рўзномаи
«Овази точик»



Жаңы жылыңыздар менен!

Өзбекстан Республикасынын келечеги болгон кымбаттуу окуучулар!
Силерди кирип келген 2007-Жаңы жыл менен Кыргыз-

стандын Өзбекстандагы элчилиги атынан чын жүрөктөн күттүктаймын.

Элдерибиздин келечекке карай жүрүштөрү—түлпардай күлүк, максаттары аскар тоодой бийик болсун!

Жаңырган жылда окуунарга албан-албан ийгиликтер жана чын ден соолукта болушуңарды каалаймын!



Айдай
Омуркулова,
Өзбекстан
Республикасындагы
Кыргызстан
Республикасы
элчилигинин
маданият
жана агартуу
иштери боюнча
көңешчиси

СОЛИ НАВ

Тифлони сарфарозем,
Чун арча бениёзэм.
Дар даври арча бозем,
Дар гирди арча тозем.

Бобои Барфии мо,
Бо түхфаҳои аъло,
Хүшинд карда моро,
Гүянд басо тасанно.

Шебру суруд хонем,
Рақсему по фишонем.
Хушрӯзу хушзамонем,
Хушбаҳт күдаконем.

Соли нав ояд имрўз,
Фоли нав ояд имрўз.
Иқболи шоду пирўз,
Холи нав ояд имрўз.

Ин соли нав муборак!
Ин фоли нав муборак!
Иқболи нав муборак!
Омоли нав муборак!

Соли самар шавад он,
Соли ҳұнар шавад он.
Бар күдакони олам,
Соли зафар шавад он.

ПАЙМОН.

O'smirlilik bekti

An'anaga ko'ra, har yil yakunida o'quvchilarimiz orasida so'rovnoma o'tkazamiz. Ularning «Tong yulduzi» xususidagi fikr-mulohazalar, taklif va istaklari asosida gazetamizni yana-da mazmunliroq, qiziqarliroq chiqarishga intilamiz.

«O'smirlilik bekti» deb nomlangan ushbu sahifamiz yuqori sinf o'quvchilari, litsey va kollej talabalari istagiga binoan tashkil qilindi. Nomidan ham ko'rinish turganidek, sahifamiz o'g'il-qizlarimizning bu davridagi holatlari, salomatliklari, qiziqish va intilishlari, mashg'ulotlari, duch kelishlari mumkin bo'lgan muammolari, qo'yingchi, O'SMIRLIK davri haqida. Shuningdek, ular ijodidan namunalar ham berib boriladi.

Siz ham maktublar yo'llab, fikr-mulohazalarinigizni tengdoshlarining bilan o'rtoqlashasiz, degan umiddamiz.

HUSNUZAR NEGA TOSHADI?

O'smir yoshidagi qizlarimizning ko'philigi yuz terilarining tez-tez yog'lanib, yaltirab qolishidan shikoyat qilishadi. Bu esa husnuzarlar chiqishiga zamin yaratadi. Chunki husnuzar yuz terisidagi bezlarning haddan ziyod yog' ishlab chiqarishidan kelib chiqadi.

Poytaxtdagi Shahar o'quvchilar ijodiyot markazi «Yosh jurnalist» to'garagi a'zosi Muxlisa Musaxo'jayevaning bergan maslahatlari ana shunday qizlarimizga juda qo'l keladi, deb o'laymiz:

—Yuz terisida ko'plab toshmalar, ya'ni husnuzarlar paydo bo'lishining oldini olish uchun yuzingizni qishda xona haroratidagi, yozda esa sovuq suvda yuvishga odatlaning. Issiq suvdan so'ng darhol sovuq suvga o'tmang. Dastlab iliqroq, so'ng sovuqroq suvda yuvinishga harakat qiling. Sovuq suv qon tomirlarini toraytiradi. Iloji bo'lsa, yuzingizni sovun bilan kamroq yuving. Chunki u ilk ajinlar sababchisidir. Har kuni ertalab va kechqurun yuzingizga «Atirgul» losyonini surib turing. Uni o'zingiz uy sharoitida tayyortlasangiz ham bo'ladi. Buning uchun 5-6 dona atirgul yaproqlarini bitta stakanga solib, ustidan qaynoq suv solasiz. Sovugach, paxtaga shimidirib, yuzingizga surtasiz. Bu muolaja vaqtida ko'zingizga acheniq choyga botirilgan paxta tamponlarini qo'ying. Chunki har qanday losyon, krem yoki pardoz ko'z atrofini cheilib o'tgan holda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ngra, yuzingizni sovuqroq suvda yuving-da, ko'zguga boqing. Tinig va ravshan tortgan ko'zlarining, ipakdek mayin yuzlaringizga boqib, mahliyo bo'lib qolishingizga mana men kafil.

Bu bir dugonangizning maslahatlari edi. Xo'sh, bu xususda shifokorlarning fikri qanday? Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 34-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi Nodira TURG'UNOVA tuman poliklinikasi teri kasallikkari shifokori Tohir aka Yusufaliyev bilan suhbatlashib, maslahatlarini yozib oldi:

«YIGIT GULI» KO'RKMI YO NUQSON?

—Husnuzar odatda yog' bezlari faoliyatining buzilishi oqibatida terida turli toshmalar toshishi bilan kechadi. «Yigit guli» nomi bilan yuritiladigan husnuzar xili aksariyat yigit-qizlarda balog'atga yetish davrida paydo bo'ladi. Balog'at davrida odamlardagi yog' bezlari faoliyati kuchayadi. Agar terida husnuzar alomatlari paydo bo'lsa, iloji boricha shirinliklar hamda yog'li mahsulotlarni iste'mol qilmaslik lozim. Nahorda sabzi, limon yoki petrushka sharbatini ichish ham yaxshi samara beradi. Ovgatlarga ziravorlardan zanjabil qo'shib iste'mol qilinsa, husnuzarlarga xotima beradi.

Husnuzar toshganda bodring ham kor qiladi. Buning uchun uning ezilmasidan 4 qoshiq olib, ustiga 300 gramm qaynoq suv soling va 4 soat davomida damlab qo'ying. Damlamadan husnuzarlarga tez-tez surtib turing.

HAYOT LAZZATIDAN BAHRA OL, AMMO...

OITS, giyohvandlik insoniyat uchun juda ham ayanchli so'zlar hisoblanadi. Lekin har birimiz ushbu kasallikkarga chalinib qolishimiz mumkinligi haqida hech mulohaza qilib ko'rganmizmi?

Afsuski, keyingi paytlarda O'zbekistonda ham bu kasallikka duchor bo'lganlar soni birmuncha ortib boryapti. 1997-yilda bu ofatlar bilan kasallanganlar soni 154 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yili 1200 kishini, 2003-yilda esa 1836 kishini tashkil etdi. Hozirda bedavo xastaliklar bilan kasallanganlar soni 7810 nafarni tashkil etmoqda. Uning 60 foizini erkaklar, 30 foizini ayollar, eng achinarlisi, 10 foizini begunoh nora-sida go'daklar tashkil qilyapti.

Men sizlarga mana shu kasallikka chalinib, hayoti fojia bilan yakun topgan bir yigit haqida so'zlab bermoqchiman. Shoyad, qizi-qishdanmi, havadanmi yoki biror kimsalar ta'siridanmi, bu yo'lda qadam qo'yayotgan o'smir ukajonlarimga saboq bo'lsa.

Hikoya oxiri voy bilan tugaydigan bu ko'chaga o'ylamay qadam qo'ygan yigitning o'z tilidan bayon qilinadi:

SALOM, AZIZ UKAJONLARIM!

Sizga hayoti bevaqt xazon bo'layotgan, ayni damda o'lim bilan olishib yotgan inson murojaat qilmoqda. Men endigina 23 bahorni qarshilagan bo'lsam-da, hayotning baxtli lahzalarini ko'rishga ulgurolmadim. Oila qurish, o'zimdan keyin nasl qoldirish, mehnatim bilan biror kimsaga, jamiyatga foyda keltirish nasib etmadni. Ammo ota-onamga, yaqinlarimga, qarindosh-urug'larimga baxtsizliklar, azob-uqubat keltirishga ulgurdim. Mening bu dunyodan nom-nishonsiz ketishim sababi OITS kasalligiga chalinganimdadir. Bu kasallikning boshlanishi quyidagicha bo'ldi:

15 yoshli o'spirin edim. Qanday yo'l bilan bo'limasin, tengdoshlarim orasida hurmat qozonishim shart, degan fikr xayolimni tark etmasdi.

Bir kuni o'rtoqlarim bilan ko'chada gaplashib o'tirgandik. Notanish bir kishi yonimizga kelib, allaqanday kukunni ko'rsatdi. «Bundan tatib ko'rsangiz, hech qachon his qilmagan ajoyib bir kayfiyatni his qilasiz. Qo'rqmang, bir martagina tatib ko'rsangiz, hech narsa qilmaydi. Qolaversa, bepul. Qani, ichingizda mardi bormi?» deya da'vat qildi.


O'zimni ko'rsatish fursati keldi, deya tavakkal qilib kukundan tatib ko'rdim. Lekin qanday ahmoqona ish qilib qo'yganimni keyinroq bildim. Narkotik moddaga juda tez bog'lanib qoldim. Ularni falon pulga o'sha

yigitning o'zidan sotib olardim. Pul yetishmasdi. O'g'irlik qila boshladim. Bir necha oy ichida onam mung'ayib, sochlari oqarib ketdi. OITS kasalligiga esa qachon chalinib qolganimni o'zim ham bilmayman. Ko'pincha og'aynilar davrasida giyohvand muddalarni qabul qilish uchun bitta shprisdan foydalanardik. O'shanda virus menga igna orqali o'tgan, deb o'layman. Kasallik yashirin tarzda rivojlanar ekan. Giyohvandlikka shunchalik bog'lanib qolganimdan ilk muhabbatimni ham uning qurbaniga aylantirdim. Tibbiyot kollejida o'qiydigan bir qizni sevardim. Qish kunlarining birida gripp bilan og'ridim. Kasallik juda og'ir kechdi va meni bir necha hafta to'shakka mixlab qo'ydi. Sevgan qizim mendan xabar olish uchun uyimizga keldi. Yoni mda o'tirib, nogahon bilagimdagigna izlariga ko'zi tushib qoldi va

mening giyohvand inson ekanligimdan xabar topdi. OITS kasalligiga chalinganim ham shunda ma'lum bo'ldi. Shu tariqa hayotim DO'ZAXga aylandi. Endi giyohvand muddalarning oz miqdori meni og'riqdan xalos etolmas, borgan sari uning miqdorini oshirib borardim. Endi o'limga mahkum ekanligimni aniq bilardim. Urushlarsiz, tinch zamonada ham insonlar bevaqt vafot etadilarmi? Men bu savolga, ular o'zlarini o'limga mahkum etadilar, deb javob bergan bo'lardim. Hech qanday mol-davlat ham, yaqinlari ham, hatto eng tajribali, bilimdon shifokorlar ham bu kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga yordam bera olmas ekanlar. Afsuski, men buni juda kech angladim. Qanchadan-qancha orzularim, niyatlarim bor edi. Do'stlarim orasida hurmat-e'tibor qozonmoqchiydim. Essiz, hammasi sarobga aylandi...

Aziz ukajonlarim, men bu fojiali hikoyani bejiz keltiganim yo'q. Shoyad, bu oxiri voy ko'chalarga kirib borayotgan o'smirlarga saboq bo'lsa.

Hayot go'zal, bebabu ne'mat. Sizning yosh qalbingiz esa orzular bilan limmo-lim. Hayot lazzatidandan bahra olib, orzularingizga yetishish uchun yashang. Sog'lim turmush tarzini kechiring. OITS va giyohvandlikka qarshi kurashni bugundanoq boshlang.



Sog' yurak - tog' yurak

**Suratdagi tengdoshingiz
Noiba Hojiakbarova Chilon-**
zor tumanidagi 126-maktabning 3-«B» sinfida o'qiydi.
**Noiba sportning akrobatika
turi bo'yicha respublikamizda
o'tkazilgan nufuzli musobaqlarda qat-
nashib, Diplom va «Faxriy yorliq»lar
olgan.**

- Men akrobatikaga 5 yoshimdan beri qatnayman,-deydi tengdoshingiz Noiba.

- **Nima uchun aynan akrobatika bilan
shug'ullanishga qiziqib qolgansiz?**

- Men qatnayotgan 204-bog'cha maktab sport, ingliz tiliga ixtisoslashgan edi. Bog'-chaga qatnayotganimda gimnastika bilan shug'ullanardim. Bir kuni mashg'ulot paytida akrobatika bo'yicha murabbiyimiz Mohira opa Ergashevna kirib keldilar va bizning mashqlarimizni tomosha qilib turib, menga yaqinlashdilar. Mushaklarimni ushlab ko'rib, sen akrobatika bilan shug'ullanishing kerak, dedilar. Shundan beri Mohira opa Ergashevna hamda Nargiza opa Qodirovalardan akrobatikaning eng qulay mashqlaridan tortib murakkablarigacha o'rganib kelayapman.

Akrobatika bilan gymnastikaning farqi bormi?

- Albatta, gimnastikada guruh bo'lib yoki yakka holda ishtirok etilsa, akrobatikada faqat guruh bo'lib ishtirok etamiz. Masalan, bir-birlarimizning yelkamizga chiqib, bir necha daqqaqura olishimiz kerak. Agar yiqilsak yoki ko'zlangan mashqlarimizni bajara olmasak, to'plagan ballarimizni yo'qotamiz.

**Musobaqlarda murakkab mashqlar bajararkansiz.
Mashq qilish jarayonida biror xavfsizlik chorasini
ko'rasizlarmi?**

- Yiqilib ketmasligimiz uchun bellarimizdan arqon bilan bog'lab qo'yishadi. Mashqlarni o'rganib oorganimizdan so'ng mustaqil bajarishga kirishamiz. Guruhdoshlarim Shirin Solihova,

O'zimiz ertak yozamiz.

QIZIL ATIRGULLAR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir mamlakat podshohining go'zallikda tengi yo'q yakka-yu yagona qizi bo'lgan ekan.

Bir kuni Malika saroyni aylanib, boqqa chiqibdi va bir-birlarini ko'rib, bahri dili yosh, kelishgan bir yigit Malikani ko'rgan bog'-ga nisbatan qandaydir va hayajonlanib, qizil unga hadya etibdi.

Malikaga uylanish niyatida turli mamlakatlardan kelayotgan shahzodalar rad javobini olaverishibdi. Otasi esa bundan qattiq ranjibdi. Malika tushkunlikka tushib, bog'bonning oldiga chiqibdi. Bog'bon uning ko'nglini ko'tarish uchun qiziq voqealar aytilib beribdi. Malika bog'bonning ochiq ko'ngil va samimiy ekanligini ham bilib olibdi.

Bir kuni podshoh bog'bonni chaqirib, eng chiroyli atirgullardan uzib keltirishini buyuribdi. Lekin bog'bon gullarni eng avvalo podshohga emas, malikaga beribdi. Bundan xabar topgan podshoh o'ziga nisbatan humatsizlik qilgan bog'bonni zindonga tashlabdi. Shunda Malika yig'lab, «Otajon, unday bo'lsa, meni ham zindonga tashlang. Axir ujonini garovga qo'yib, shu yo'l bilan menga muhabbatini izhor etdi. Men ham uni sevib qolganman. Shoh qizi bo'lsam-da, o'z muhabbatimni unga aytishga jur'at etolmayotgandim», debdi. Yakka-yu yolg'iz qizining ko'z yoshlarini ko'rib ko'ngli yumshagan podshoh bog'bonni zindondan chiqaribdi. Qizining muhabbatini yana o'sha atirgullar orqali bog'bonga bildirib, shunday debdi:

- Bu atirgullarni qizim senga berishi uchun keltirgandim. Atirgullar muhabbat ramzidir.

Shunday qilib, malika va bog'bonning to'yulari qirq kecha-yu qirq kunduz davom etibdi va baxtli hayot kechira boshlashibdi.

**Farhod MUHAMMADJONOV,
Uchtepa tumanidagi 236-maktabning
4-«B» sinf o'quvchisi.**

AKROBAT QIZ



Nigora Qodirovalar bilan birgalikda respublikamizning turli viloyatlarida o'tkazilgan musobaqlarda qatnashganmiz. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan shahar birinchiligi musobaqasida II o'rinni, Quva shahrida o'tkazilgan O'zbekiston birinchiligidagi I o'rinni egallab, O'zbekiston Respublikasi kubogi uchun bo'lgan musobaqada II darajali Diplom bilan taqdirlanganman. Shuningdek, Mustaqillik, Navro'z bayramlarida, «Umid nihollari», «Universiada» musobaqalarining ochilish marosimlarida o'z namoyishlarimiz bilan qatnashib turamiz.

-Akrobatikadan boshqa nimalar bilan shug'ullanasiz?

- Ertak kitoblar o'qiyman, oyimlarga yordamlashaman. Musobaqalar sabab darslarni ko'p qoldirishimga to'g'ri keladi. Qolib ketgan darslarimni ustozlarim bilan birga bajarib, tengdoshlarimga yetib olaman.

Biz Noibaning omadi chopib, yurtimiz bayrog'ini Yer uzra baland hilpirashiga hissa qo'shishini istaymiz. Uning safdoshlari yana ko'paysin.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.



Ona yurting o'sha beshing
TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV
(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),
Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi ijrochi direktori),
Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy kengashi raisi o'rinbosari),
Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMU bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),
Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),
Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),
Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

**Adadi - 58001
Buyurtma N: J 3173**

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA

**Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.**

Obuna indeksi: 198.

**e-mail:
tong1924@mail.ru**

Tel: 144-27-25

144-63-08

**Tel./ faks:
(99871) 144-38-10**